



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF SOCIAL ADAPTATION AND INTEGRATION IN INCLUSIVE EDUCATION

Hayotjon Karimov
 Researcher
 FerSU
 Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: inclusive education, social adaptation, integration, socio-philosophical essence, human dignity, social justice, humanism, sustainability, equality in education, civil inclusion, cultural diversity.

Received: 16.05.25

Accepted: 18.05.25

Published: 20.05.25

Abstract: This article analyzes in depth the socio-philosophical nature of the processes of social adaptation and integration in the system of inclusive education. Inclusiveness has been seen not only as creating equal opportunities in education, but also as an important condition for deciding justice, human dignity, social stability and tolerance in society. The study explained the conceptual approaches implemented in the path of their socialization, the perception of oneself as an equal member of society by creating opportunities for full - fledged participation in an educational environment for individuals with disabilities, strata in need of social protection, ethnic or cultural groups, inextricably linked with philosophical categories-equality, justice, humanism, civil solidarity. At the same time, the humanistic foundations of inclusiveness, the impact on the processes of cultural diversity and social unification, as well as the existing problems are analyzed.

INKLYUZIV TA'LIMDA IJTIMOIIY MOSLASHUV VA INTEGRATSIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI

Hayotjon Karimov
 Tadqiqotchi
 FarDU
 O'zbekiston, Farg'ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: inkluziv taʼlim, ijtimoiy moslashuv, integratsiya, ijtimoiy-falsafiy mohiyat, inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, gumanizm, barqarorlik, taʼlimdagi tenglik, fuqarolik inklyuziyasi, madaniy xilma-xillik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada inkluziv taʼlim tizimida ijtimoiy moslashuv va integratsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati chuqur tahlil qilingan. Inkluzivlik nafaqat taʼlimda teng imkoniyatlar yaratish, balki jamiyatda adolat, inson qadr-qimmati, ijtimoiy barqarorlik va bagʻrikenglikni qaror toptirishning muhim sharti sifatida koʻrilgan. Tadqiqotda nogironligi boʻlgan shaxslar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, etnik yoki madaniy guruhlar uchun taʼlim muhitida toʻlaqonli ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning ijtimoiylashuvi, oʻzini jamiyatning teng huquqli aʼzosi sifatida his etishi yoʻlida amalga oshirilayotgan konseptual yondashuvlar falsafiy kategoriyalar - tenglik, adolat, insonparvarlik, fuqarolik hamjihatligi bilan uzviy bogʻliq holda izohlangan. Shu bilan birga, inkluzivlikning gumanistik asoslari, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy birlashuv jarayonlariga taʼsiri hamda mavjud muammolar tahlil qilingan.

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ И
ИНТЕГРАЦИИ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Хаётжон Каримов

Исследователь

ФерГУ

Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инклюзивное образование, социальная адаптация, интеграция, социально-философская сущность, человеческое достоинство, социальная справедливость, гуманизм, устойчивость, равенство в образовании, гражданская инклюзивность, культурное разнообразие.

Аннотация: В данной статье глубоко проанализирована социально-философская сущность процессов социальной адаптации и интеграции в системе инклюзивного образования. Инклюзивность рассматривалась не только как создание равных возможностей в образовании, но и как важное условие достижения справедливости, человеческого достоинства, социальной стабильности и терпимости в обществе. В исследовании концептуальные подходы, реализуемые на пути их социализации, ощущения себя равноправным членом общества путем создания возможностей полноценного участия в образовательной среде для лиц с ограниченными возможностями здоровья, социально незащищенных слоев, этнических или культурных групп,

объясняются в неразрывной связи с философскими категориями - равенство, справедливость, гуманность, гражданская сплоченность. Однако были проанализированы гуманистические основы инклюзивности, ее влияние на процессы культурного разнообразия и социальной интеграции, а также текущие проблемы.

KIRISH

Inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat bugungi kunda zamonaviy demokratik jamiyatlarning poydevorini tashkil etuvchi tamoyillar sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida bu qadriyatlarning amalda ro'yobga chiqarilishi orqali jamiyatda inklyuzivlik, barqarorlik va fuqarolik birdamligi mustahkamlanadi. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim falsafasining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Bu model ta'lim olish huquqini barcha ijtimoiy guruhlar uchun - nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari, etnik ozchiliklar, madaniy, til va din jihatdan farqli qatlamlar uchun teng imkoniyatlar asosida ta'minlashga qaratilgan. Inkluziv ta'lim shunchaki pedagogik yondashuv emas, balki u jamiyatdagi ijtimoiy tenglik, fuqarolik sadoqati, bag'rikenglik kabi chuqur falsafiy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham, bu yo'nalishni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish - uni nafaqat ta'lim muammosi, balki ijtimoiy ong, axloqiy mas'uliyat va sivilizatsion rivojlanish masalasi sifatida ko'rishga imkon beradi. "Har bir bola - yagonaligi bilan qadrlidir va ta'lim jarayonida istisnosiz ishtirok etishga haqli" [4.].

Bugungi globallashuv davrida jamiyatda inson qadri, teng imkoniyat va ijtimoiy adolat masalalari davlat siyosatining markaziga chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining nutqlarida va strategik hujjatlarida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida hech kim e'tibordan chetda qolmasligi kerakligi tamoyili doimiy ravishda ilgari surilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2020-yilda bo'lib o'tgan Oliy Majlisga murojaatida shunday degan edi: "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash - bu bizning insoniy burchimizdir. Ular uchun ta'lim olish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishimiz zarur" [1.] Bu fikr bevosita inklyuziv ta'limni nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy majburiyat sifatida qaralishini anglatadi. Inson qadri va adolat ustuvor bo'lgan jamiyatda inklyuzivlik - bu shunchaki siyosiy yoki ijtimoiy ko'rsatkich emas, balki milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va jamiyatda birdamlikni ta'minlovchi qadriyatdir. Shuningdek, quydagi nutqlarini keltirishimiz mumkin: "Hech kim e'tibordan chetda qolmasligi kerak - bu bizning yangi davrda amalga oshirayotgan ijtimoiy siyosatimizning bosh tamoyilidir" [2. 37.]. Bu

g'oya orqali davlat har bir fuqaroning jamiyatdagi o'rnini tan oladi va ularni ijtimoiy hayotga to'liq integratsiyalashni maqsad qiladi. Inkluziv ta'lim esa bu yo'lda eng muhim ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqadi.

Bundan tashqari, Prezidentning 2022-yilgi "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan islohotlar siyosati doirasida inklyuzivlik masalasi ta'lim sohasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berildi. Bu orqali quyidagi ijtimoiy-falsafiy vazifalar dolzarb bo'lib chiqdi:

- insonni qadrlash orqali ta'limda tenglikka erishish;
- ijtimoiylashuv imkoniyati past bo'lgan guruhlarini jamiyatga integratsiyalash;
- ijtimoiy ongda bag'rikenglik va xilma-xillikni qadriyat sifatida shakllantirish.

Shu asosda aytish mumkinki, Shavkat Mirziyoyevning siyosiy-falsafiy qarashlarida inklyuziv ta'lim ijtimoiy birdamlik, ma'naviy uyg'onish va ijtimoiy barqarorlikning tayanchi sifatida talqin qilinmoqda. U davlatni kuchli qilish uchun jamiyatdagi har bir fuqaroning taqdirini, huquqini va qadriyatini tan olish zarurligini doimiy eslatib kelmoqda. Bu esa inklyuziv ta'lim masalasini bugungi kun uchun nafaqat dolzarb, balki strategik muhim ijtimoiy qadriyat darajasiga olib chiqadi.

O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida ham inklyuzivlik va inson qadriyatini ulug'lash konsepsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqolada aynan shu yo'nalish - ijtimoiy moslashuv va integratsiyaning inklyuziv ta'lim tizimidagi falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlilning zamonaviy usullari asos qilib olindi. Inkluziv ta'lim fenomenining murakkab, ko'p qatlamli mohiyatini chuqur ochib berish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

ASOSIY QISM

Inkluziv ta'lim masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki falsafiy, sotsiologik va gumanitar fanlar kesimida ham dolzarb ilmiy masalaga aylangan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar inklyuzivlik tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini turlicha yoritadi. Birinchi navbatda, UNESCO tomonidan 1994-yilda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasida har bir bolani istisnosiz tarzda ta'lim jarayoniga qo'shish zarurligi ta'kidlanadi. Deklaratsiyada shunday deyiladi: "Har bir bola - yagonaligi bilan qadrlidir va ta'lim jarayonida ishtirok etishga haqlidir" [5. 6.]. Bu hujjat inklyuziv ta'limning xalqaro falsafiy va huquqiy asoslarini belgilab berdi. UNICEFning 2021-yilgi yillik hisobotida esa inklyuziv ta'lim jamiyatdagi tenglik, ishtirok va fuqarolik birdamligini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi. Unga ko'ra, inkluzivlik - bu faqat nogironlar uchun emas, balki barcha insonlar uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlovchi mexanizmdir [6. 12.].

Milliy tadqiqotlar orasida I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" nomli asarida inson qadri, uning jamiyatdagi o'rnini va o'zligini anglash jarayoni vatanparvarlik va

ijtimoiy barqarorlik bilan bog'langan. Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Yuksak ma'naviyat - bu jamiyatning asosiy tayanchi bo'lib, har bir insonda o'zligini anglash va jamiyatga moslashish istagini shakllantiradi" [3. 24-25.]. Bu fikrlar inklyuzivlik tamoyillariga asos bo'luvchi qadriyatlar - inson qadr-qimmati, ijtimoiy moslashuv va o'zlikni anglash bilan uyg'unlashadi.

Q.Sultonov tomonidan olib borilgan ilmiy maqolalarda ham inklyuziv ta'limni jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va adolatga xizmat qiluvchi konsepsiya sifatida talqin qilishga urinishlar mavjud. Uning fikricha, "Inkluziv ta'lim orqali inson faqat bilim emas, balki jamiyatda o'z o'rnini topish yo'lini ham o'rganadi" [4. 41-42.]. Bu nuqtai nazar inklyuzivlikni shaxsning ijtimoiy integratsiyasi va fuqarolik o'zini anglash bilan bog'laydi.

Chet ellik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda esa inklyuzivlik tushunchasining chuqur falsafiy talqinlari mavjud. Martha Nussbaum o'zining *Creating Capabilities* asarida inklyuziv ta'limni inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut deb baholaydi. U shunday yozadi: "Real tenglik uchun shunchaki kirish huquqi emas, balki salohiyatni ro'yobga chiqarish imkoniyati zarur" [7. 35-36.]. Amartya Sen ham *Development as Freedom* asarida shaxsiy erkinlik va salohiyat asosida jamiyatda adolat va farovonlikni barpo etish mumkinligini ta'kidlab, inklyuzivlikni rivojlanish uchun zaruriy asos deb biladi: "Haqiqiy erkinlik - bu imkoniyatlar ochiq bo'lgan jamiyatda yashashdir" [8. 81-83.]. Shuningdek, Booth va Ainscow tomonidan ishlab chiqilgan *Index for Inclusion* qo'llanmasida inklyuziv maktab - bu farqlarni to'siq emas, resurs deb qabul qiladigan ta'lim muhitidir, degan konsepsiya ilgari suriladi. Ular ta'lim muassasalarini ijtimoiy hamjihatlik va madaniy xilma-xillik asosida tashkil qilishni tavsiya etadilar. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganish, uni faqat ma'lum bir ijtimoiy qatlamlar uchun emas, balki butun jamiyat uchun ahamiyatli jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. Bunda inklyuzivlik faqat pedagogik model emas, balki insoniylik, tenglik, gumanizm va jamiyat barqarorligi uchun zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida "inklyuzivlik", "ijtimoiy integratsiya", "moslashuv", "inson qadri", "gumanizm", "ijtimoiy adolat" kabi tushunchalar falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilindi. Ular o'zaro qanday uyg'unlashuvi va jamiyatdagi qanday rol o'ynashi aniqlashtirildi. Inkluziv ta'limni shaxs markazida tahlil qiluvchi yondashuv. Har bir insonning imkoniyatidan qat'i nazar, u jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida tan olinishi kerakligi asosida fikr yuritildi. Inkluziv ta'limning rivojlanish bosqichlari (xalq ta'limidan differensial ta'limgacha, so'ng inkluziv modelgacha) tarixiy nuqtai nazardan o'rganildi. Ayniqsa, zamonaviy O'zbekistonda bu boradagi siyosiy-huquqiy qarorlar, xalqaro tajriba bilan taqqoslandi. O'zbekistonning inklyuziv ta'lim tajribasi Janubiy Koreya, Finlyandiya, Kanada va Italiya kabi davlatlar tajribasi bilan qiyoslab, umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Falsafiy tahlillar bilan birga so'nggi yillarda amalga

oshirilgan ijtimoiy so'rovnomalari, xalqaro tashkilotlarning (UNESCO, UNICEF) hisobotlari, pedagogik kuzatuvlar ham integratsiyalashgan holda tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Inkluziv ta'lim nafaqat ta'lim tizimidagi islohotlar bilan bog'liq, balki u jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, axloqiy qadriyatlari va fuqarolik madaniyatining shakllanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'tkazilgan falsafiy va amaliy tahlillar natijasida inklyuzivlik tushunchasi keng qamrovli ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega ekani isbotlandi.

Inkluziv ta'lim - ijtimoiy adolat tamoyilining amaliy ko'rinishi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishda muhim mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Adolat bu yerda barcha uchun bir xil imkoniyat emas, balki har bir shaxsning ehtiyojiga mos muhit yaratishni nazarda tutadi. Bu "differensial tenglik" (equity) tushunchasi bilan bog'liq. Bu borada Amartya Sen va Martha Nussbaum nazariyalari inklyuzivlikka erkinlik va salohiyat nuqtai nazaridan yondashish zarurligini asoslaydi. Ijtimoiy moslashuv - shaxsning jamiyatga bo'lgan ichki bog'liqligi. Inkluziv ta'lim orqali shaxs o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi. Bu jarayon shunchaki tashqi ishtirok emas, balki axloqiy qabul qilinish, madaniy moslashuv, qadr topish orqali amalga oshadi. Bu esa ta'lim muassasalarini insonparvarlik va axloqiy qadriyatlar asosida tashkil qilishni taqozo etadi.

Integratsiya - madaniy xilma-xillik va jamiyatdagi birlashuv. Integratsiya - bu farqli guruhlar jamiyatga "singdirish" emas, balki ularning o'ziga xosligini saqlagan holda murosaga asoslangan birgalikdagi mavjudlikni ifodalaydi. Inkluziv ta'limda bu o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, ijtimoiy muomala, bir-birini tushunishga asoslangan muloqot orqali yuz beradi. Booth va Ainscow tomonidan ishlab chiqilgan Index for Inclusion modeli aynan shu holatga qaratilgan.

O'zbekistonda 2020-yildan boshlab qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi qonun va "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Maktabgacha ta'lim muassasalari va umumiy o'rta maktablarda ijtimoiy moslashuv markazlari tashkil etildi. Shu bilan birga, quyidagi muammolar mavjud: ko'plab ta'lim muassasalari fizik infratuzilma bo'yicha to'liq moslashtirilmagan; kadrlar malakasi past, metodik qo'llanmalar cheklangan; jamiyatda stereotiplar va stigma saqlanib qolgan; oila va jamoatchilik ishtiroki hali sust. Shu sababli, ta'limni faqatgina inklyuziv bo'lishga da'vat etish emas, balki butun jamiyatni inklyuziv qadriyatlar asosida o'zgartirish zarur.

Inkluziv ta'lim faqatgina maxsus ehtiyojli shaxslarni emas, balki har bir insonni e'tirof etish, tan olish va qadrlash g'oyasiga asoslanadi. Bu esa ijtimoiy tafakkurda "normallik" tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Yangi falsafiy yondashuv - har xil bo'lish, ya'ni farqlilik jamiyat boyligidir, degan kontsepsiya asosida qurilishi lozim. Bu borada inklyuzivlik - ijtimoiy muvozanat, erkinlik va ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida qayta talqin qilinmoqda.

Mualliflik nuqtai nazaridan biz inkluziv ta'limni jamiyatda inson shaxsini to'liq tan olish va hurmat qilish falsafasining amaliy ifodasi deb hisoblayman. Bu jarayon nogironligi bo'lgan yoki ijtimoiy jihatdan noqulay sharoitda yashayotgan insonlarni shunchaki jamiyatga "qo'shish" emas, balki ularni teng huquqli a'zo sifatida qabul qilish, tushunish va qadrlash orqali ro'yobga chiqadi. Inson qadri uning jismoniy imkoniyatlari yoki ijtimoiy statusi bilan emas, balki jamiyat oldidagi axloqiy va ma'naviy huquqlarini tan olish orqali o'lchanadi. Inkluzivlik bu borada zamonaviy sivilizatsiyaning axloqiy mezoniga aylanmoqda. Shunday ekan, har qanday ta'lim modeli, agar u inson qadri va huquqlarini o'z markaziga qo'ymasa - u chinakam zamonaviy emas.

Ijtimoiy moslashuv - shaxs va jamiyat o'rtasidagi aksiologik muloqot. Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy moslashuvni insonning jamiyat bilan o'zaro til topish qobiliyati sifatida emas, balki uning qadr topishi, tan olinishi va jamiyatda o'z o'rnini his qilishi bilan bog'liq deb bilaman. Shaxs jamiyatga moslashish jarayonida o'zini jamiyatdan past emas, balki unga daxldor deb his qilishi uchun unga yo'naltirilgan "insoniy" munosabat bo'lishi kerak. Bu yerda muammo faqat tashkiliy yoki texnik emas, balki ontologik va aksiologik tusdadir. Ya'ni insonning mavjudligi va qadri tan olinmaydigan muhitda hech qanday haqiqiy inklyuziya bo'lishi mumkin emas. Ta'kidlash kerakki, inkluziv ta'limda ijtimoiy moslashuv bu - jamiyatning o'zini inklyuziv qilish jarayonidir. Chunki inklyuzivlik bir tomonlama emas, ikki tomonlama ijtimoiy ong jarayonidir.

Inkluziv ta'lim - jamiyatning madaniy salohiyati ko'rsatkichi. Fuqarolik pozitsiyamizga ko'ra, har bir jamiyatda inklyuzivlik darajasi uning faqat pedagogik yondashuvi yoki iqtisodiy qudrati bilan emas, balki madaniy-axloqiy yetukligi bilan belgilanadi. Chunki madaniyat - bu nafaqat san'at va estetik qarashlar, balki boshqalarni qabul qilish, murosaga borish, farqlilikni qadrlash madaniyatidir. Bu jihatdan inklyuziv ta'lim - jamiyatning o'z farqliliklarini boylik sifatida qabul qilish madaniyatini aks ettiradi. Shunday desak yanglishmaymiz: inklyuzivlik bu - jamiyat ma'naviy darajasining "lakmus qog'ozi"dir. Kimni qanday qabul qilayotganimiz - kim ekanligimizni ko'rsatadi.

Ta'lim - ijtimoiy inklyuziya uchun maydon, inklyuzivlik - jamiyatning kelajagidir. Inkluziv ta'limni men shaxsni tayyorlash maydoni deb emas, balki jamiyatni shakllantirish laboratoriyasi deb bilaman. Chunki aynan ta'lim jarayonida insonlar bir-birini o'rganadi, turli shaxsiy jihatlarni anglaydi, hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat hissi shakllanadi. Aynan maktabda farqlilikka ko'z yumish emas, balki uni qadrlash - ongda shakllanadi. Shuning uchun har bir maktab - bu jamiyatning kelajagini quruvchi ijtimoiy inkubator sifatida baholanishi kerak. Inkluziv maktablar - ertangi tolerant, axloqiy va adolatli jamiyatning birlamchi prototipidir.

Inkluzivlik - faqat shaxsiy ehtiyoj emas, balki jamiyat ehtiyojidir. Men inklyuzivlikni jamiyat tomonidan "ehtiyojmandlarga" qaratilgan saxovat emas, balki butun jamiyat uchun zarurat deb hisoblayman. Chunki inklyuzivlik orqali jamiyat o'zini ongli, bag'rikeng, intellektual jihatdan

o'zgacha yo'nalishga ega ijtimoiy tizim sifatida qayta ang'laydi. Bu jarayon ijtimoiy yaxlitlikni, birdamlikni va totuvlikni mustahkamlaydi. Inkluzivlik - kuchlilarning zaiflarga bergan ixtiyoriy imtiyozini emas, balki jamiyatning o'zini o'zi tan olish jarayonidir.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotimiz doirasida, quydagi ilmiy-nazariy xulosalarni taqdim etmoqdamiz:

Inkluziv ta'lim - bu inson qadriyatlarini tan olishga asoslangan ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Bu shunchaki nogironligi bor bolalarni umumiy ta'limga qo'shish emas, balki insonni ijtimoiy tizimga to'liq va barobar qabul qilish tamoyiliga asoslangan falsafiy konsepsiyadir. Jamiyatda adolat, bag'rikenglik va axloqiy ongning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy moslashuv va integratsiya - jamiyat va shaxs o'rtasidagi axloqiy kelishuv ifodasidir. Shaxs jamiyatga moslashishi uchun nafaqat muhitga qo'shilishi, balki ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda yashashi lozim. Integratsiya esa farqli qatlamlar o'rtasida hamkorlikka asoslangan ijtimoiy uyg'unlikdir.

Inkluzivlik ijtimoiy birdamlik va fuqarolik jamiyatini shakllantiradi. Falsafiy jihatdan qaralganda, inkluzivlik shaxsning ijtimoiy mavjudlikdagi huquqiy, madaniy va axloqiy maqomini tan olishdir. Bu orqali jamiyatda ishtirok, mas'uliyat va erkinlik muvozanati vujudga keladi.

Inkluziv ta'lim - demokratik jamiyatning indikatoridir. Qayerda jamiyat inkluziv bo'lsa, o'sha yerda huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati va madaniy xilma-xillik uyg'un rivojlanadi. Inkluzivlik ijtimoiy ongda erkinlik va tenglik o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda inkluzivlik bo'yicha huquqiy asoslar mavjud, lekin institutsional va ongiy transformatsiya davom etmoqda. "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi qonun, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", Prezident murojaatlari va Davlat dasturlari asosida inkluziv ta'limni shakllantirish bo'yicha harakatlar olib borilmoqda. Ammo tizimli o'zgarishlar uchun ijtimoiy ong, madaniyat va boshqaruv yondashuvlarining transformatsiyasi zarur.

Shuningdek, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ham havola qilmoqdamiz:

1. Inkluziv ta'lim bo'yicha maxsus pedagoglar va yordamchi mutaxassislar (defektolog, logoped, psixolog) tayyorlash dasturlarini kengaytirish. Har bir ta'lim muassasasida individual ta'lim rejalari (ITR) asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Didaktik vositalarni differensiallashtirish, vizual va audio materiallar, tilga oid soddalashtirilgan matnlar tayyorlash.

2. Har bir hududda namunaviy inkluziv maktab va bolalar bog'chalarini tashkil qilish. Maktablarda inkluzivlik muvofiqlashtiruvchisi lavozimini joriy etish. Ota-onalar ishtirokini oshirish uchun oilaviy maslahat markazlari tashkil etish.

3. Inkluziv ta'lim bo'yicha Milliy strategiya va yo'l xaritasini ishlab chiqish (2025-2030). Har bir ta'lim muassasasida inkluzivlik bo'yicha yillik monitoring va baholash tizimini joriy

etish. Nogironlar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qonun ijrosini real indikatorlar asosida nazorat qilish.

4. Inkluzivlik g'oyasini targ'ib etuvchi televizion ko'rsatuvlar, hujjatli filmlar, sotsial reklama roliklari tayyorlash. Ommaviy ma'naviy-axloqiy tadbirlarda inkluzivlik mavzulariga keng o'rin berish. Har yili "Inkluziv jamiyat haftaligi"ni milliy miqyosda o'tkazish va innovatsion yechimlar tanlovini tashkil etish.

5. UNICEF, UNESCO, GIZ kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda pilot loyihalarni kengaytirish. Inkluziv ta'limda ilg'or tajribalarga ega davlatlar (Kanada, Finlyandiya, Yaponiya) bilan o'zaro almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/3324>
2. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2022. - B. 37.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 176.
4. Q.Sultonov Ta'lim va ijtimoiy inkluzivlik // O'zbekiston ijtimoiy fanlari jurnali. - 2020. №3. - B. 40-45.
5. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. - Salamanca: UNESCO, 1994. - P. 32.
6. UNICEF. Inclusive Education Report. - New York: UNICEF Publishing, 2021. - P. 48.
7. M.Nussbaum Creating Capabilities: The Human Development Approach. - Cambridge: Harvard University Press, 2011. - P. 238.
8. A.Sen Development as Freedom. - Oxford: Oxford University Press, 1999. - P. 384.
9. T.Booth, M.Ainscow Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. - Bristol: CSIE, 2002. - P. 106.
10. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Qonun. / 2020-yil 15-oktabr. / <https://lex.uz/docs/-5049511>